

**BOLALAR TUG'MA NUQSONLARI SABABLARI, ULARNI OLDINI OLISH VA
DAVOLASH YO'LLARI****Bahodirova Mohichehra****Yusupova Sevinch****Alfraganus universiteti tibbiyot fakulteti davolash ishi yo'nalishi
2-kurs talabalari****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15672396>**

Annotatsiya. ushbu maqolada bolalarni tug'ma nuqson bilan tug'ilish sabablari va ayrim joylarda nuqson bilan tug'ilish darajasi yuqoriligi sabablari yozilgan, shuningdek tug'ma nuqson bilan tug'ilishni oldini va ularni davolash chora tadbirlari haqida bayonot keltirilgan.

Tug'ma nuqson bilan aynan qaysi viloyatlarda bolalar ko'p tug'ilayapti va aynan qaysi kasallik bilan tug'ilayotganligi haqida habar beramiz.

Kalit so'zlar: tug'ma nuqson, yurak kasalliklari, asab kasalliklari, spirtli ichimliklar, tabiat muammo, virusli kasalliklar.

Аннотация:

В данной статье рассматриваются причины рождения детей с врождёнными пороками развития, а также анализируется высокая частота таких случаев в некоторых регионах. Кроме того, представлены меры профилактики и возможные способы лечения врождённых аномалий. В статье также освещается информация о том, в каких именно областях чаще всего рождаются дети с врождёнными пороками и какие виды заболеваний преобладают.

Ключевые слова: врождённые пороки, болезни сердца, заболевания нервной системы, алкоголь, экологические проблемы, вирусные заболевания.

Abstract:

This article discusses the causes of congenital anomalies in children and explores the reasons behind the high incidence rates in certain regions. Additionally, the article outlines preventive measures and possible treatment options for congenital disorders. It also provides information about which regions have the highest rates of births with congenital defects and which specific conditions are most prevalent.

Keywords: congenital defect, heart diseases, neurological disorders, alcohol, environmental issues, viral infections.

Kirish: Tug'ma yurak nuqsonlari yoki umuman tug'ma anomaliyalarning rivojlanishiga, asosan, oltita faktor ta'sir qiladi:

1. Homilador ayollardagi anemiya;
2. Ayolning surunkali yoki o'tkir infeksiyali kasalligi;
3. Virusli kasalliklar;
4. Garmonal faktor;
5. Neyrogumoral faktor;
6. Yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh.

Kamqonlik, homiladorlikning dastlabki uch oyligida ayolning grippga chalinishi va bunga qarshi davolanmasligi, qolaversa, buyrak va boshqa a'zoldagi surunkali xastaliklar, onada uchraydigan turli infeksiyalar va virusli kasalliklar homilaning sog'lom rivojlanishiga imkon bermaydi.

Tug'ma nuqsonlarning paydo bo'lishi birgina omilga emas, ko'p sabablarning qo'shilishi natijasida yuzaga keladi. Ularning oldini olish uchun:

Qarindoshlar o'rtasidagi nikohni cheklash,

Spirтли ichimliklar, sigaret, giyohvandlik vositalari to'liq tark etilishi lozim.

Sport va jismoniy faollik ham muhim.

To'g'ri ovqatlanish:

Vitamin va mikroelementlarga boy ovqat (temir, yod, kaltsiy, B guruhi vitaminlari).

Meva, sabzavot, go'sht, don mahsulotlari.

Zararsiz dori vositalarini tanlash: yani faqat shifokor ko'rigi bilan dorilarni qabul qilish.

Keraksiz rentgen nurlanishlaridan saqlanish.

11–13 haftada va 18–22 haftada ultratovush tekshiruvlari orqali rivojlanish kuzatish.

Har oyda shifokor nazoratida bo'lish.

Tug'ma nuqsonlar quyidagi asosiy kasallik guruhlarini keltirib chiqaradi:

1.Neyrologik (asab tizimi) kasalliklar

2.Yurak–qon tomir tizimi kasalliklari

3.Xromosoma sindromlari

4.Skelet va suyak tizimi nuqsonlari

5.Og'iz–yuz sohasidagi nuqsonlar

6.Eshitish va ko'rish nuqsonlari

7.Ichki organlar (buyrak, jigar, ichak) nuqsonlari

Ulardan eng ko'p uchraydigani quyidagilar;

Yurakning tug'ma nuqsonlari (Vrojdyonnyye poroki serdtsa)

1.Eng ko'p uchraydigan tur: yurak to'siqlari teshiklari (VSD, ASD)

Har 1000 chaqaloqdan 8–12 tasida kuzatiladi

Belgilari: tez charchash, ko'karish, nafas olishda qiynalish

2. Neyral nay nuqsonlari (miya va orqa miya nuqsonlari)

Spina bifida — orqa miya yopilmay qoladi

Anensefaliya — miya rivojlanmasligi

Har 1000 chaqaloqdan 1–2 tasida uchraydi

Folat kislotasi yetishmovchiligi asosiy sabab

3. Xromosoma sindromlari (ayniqsa Daun sindromi)

Har 700–1000 tug'ilishdan 1 tasi

Yoshi 35 dan katta ayollarda xavf 4–5 baravar ortadi

Belgilari: yuz tuzilmasi o'ziga xos, aqliy rivojlanish sust

4. Lab va tanglay yorig'i (Zayacha guba, volkovo nebo)

Har 1000 chaqaloqdan 1–2 tasi

Bola emol olmaydi, gapirishda muammo

Ba'zida irsiy, ba'zida vitamin yetishmovchiligi sabab

5. Tug'ma chanoq bo'g'im chiqishi (Displaziya)

Ayniqsa qiz bolalarda ko'p

Har 1000 tug'ilishdan 1–6 tasi

Belgilari: oyog'ini ochib bo'lmasligi, yurishda kechikish.

O'zbekistonni quyidagi hududlarida tug'ma nuqsonli bolalar tug'ilish darajalari yuqori:

Samarqand viloyati:

2018 yilda tug'ma nuqson bilan tug'ilgan bolalar soni 141 nafar bo'lib, bu 2017 yilga nisbatan 10.6% ga ortgan .

Yurak va asab tizimi nuqsonlari eng ko'p kuzatilgan hududlardan biri hisoblanadi.

Buxoro viloyati:

Prenatal skrining va tug'ma nuqsonlarni aniqlash darajasi past deb topilgan .

Yurakdagi tug'ma nuqsonlar (CHD) eng keng tarqagan bo'lib, har 1000 tug'ilishdan 7–12 tasi CHD bilan bog'liq

Sirdaryo va Jizzax:

2008 davlat dasturiga qaramay, bu viloyatlarda hali ham skrining markazlari kam yoki yo'q

Bildirilishicha, bu hududlarda nuqsonlarni aniqlash va oldini olishda kamayish yuz bermagan. Nega haligacha tug'ma nuqsonlarga to'liq chek qo'yilmagan — bunga quyidagi asosiy sabablari bor:

1. Irsi (genetik) omillarni to'xtatib bo'lmaydi

Ba'zi tug'ma nuqsonlar ota-onadan gen orqali o'tadi, bu esa oldindan aniq nazorat qilib bo'lmaydigan holat.

Misol: Daun sindromi, talassemiya, irsiy yurak nuqsonlari.

Genetik xatoliklar ko'pincha tasodifiy bo'ladi yoki yillar davomida irsiyatda to'plangan bo'ladi.

2. Prenatal (homiladorlik davri) nazorat yetarli emas

Ayrim hududlarda prenatal skrining (ya'ni homilada nuqson bor-yo'qligini aniqlash) yo'q yoki sust rivojlangan.

Ayrim joylarda zamonaviy UTT apparatlari yetishmaydi, mutaxassislar malakasi past bo'ladi.

3. Ona organizmidagi muammolar

Homiladorlik davrida ona quyidagilarga duch kelsa tug'ma nuqson xavfi ortadi:

Virusli kasalliklar (masalan, qizamiq, toksoplazmoz)

Spirтли ichimliklar, chekish, giyohvandlik

Vitamin va folat kislotasi yetishmovchiligi

Stress va ekologik ifloslanish

4. Emunlashtirish va sog'liqni saqlash darajasining pastligi

Ayrim kasalliklarni (masalan, qizamiq yoki rubella) homilador ayolda emlanmaganligi homila nuqsonlariga olib keladi.

Vaksinatsiya darajasi past bo'lgan hududlarda bu holat ko'proq uchraydi.

5. Ekologik muhitning yomonligi

Ayrim viloyatlar (masalan, Qoraqalpog'iston, Sirdaryo) ekologik xavfli zonalar hisoblanadi.

Havoda og'ir metallar, radiatsiya yoki zaharli moddalarning yuqori bo'lishi genetik zararlanishga olib keladi.

Masalan: Aralbo'yidagi muhitda asosan asab tizimi va yurak nuqsonlari ko'proq.

6. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar

Past daromadli oilalarda ona homiladorlikda yetarlicha tibbiy ko'rikdan o'ta olmaydi.

Tug'ilgan bola yetarlicha parvarishlanmaydi, bu ham ba'zan nuqsonlarni chuqurlashtiradi.

O'z vaqtida abort yoki muolajalarni qila olmaslik holatlari ko'p.

7. Jamiyatda bilimsizlik va e'tiborsizlik

Ba'zilar homiladorlik davrida dori ichishni, o'zini ehtiyot qilishni ahamiyatsiz deb biladi.

Odamlar genetik maslahat olishni kerak deb bilmaydi, ayrimlari esa diniy sabablar bilan qarshi bo'ladi.

Afsuski hali ham o'zimiz istagimiz bilan o'z bolalarimizni hayotini saqlab qola olishimizni bila turib spirtli ichimliklardan va alkagoldan vos **kech olmayapmiz.!**

Birgina shuni o'zidan kechib ham qanchadan qancha bolalarni tug'ma nuqson bilan tug'ilishi oldini olishimiz mumkin edi.

Ho'sh sizningcha tug'ma nuqson bilan bolalarni tug'ilish ko'rsatgichi yildan yilga nega yuqoriga ko'tarilayapti.

Bu masalada faqat ma'sul shaxslar emas balki oddiy xaql ham jiddiy tarzda qaraganida bu ko'rsatgich yuqoriga chiqa olmasdi.!

Xulosa:

Tug'ma nuqsonlar masalasi — bu nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy, genetik va ekologik jihatlarni o'z ichiga oluvchi muhim muammo hisoblanadi. Bolalarning sog'lom tug'ilishi — jamiyat kelajagining kafolati bo'lib, buning uchun har bir inson mas'uldir. Maqolamizda qayd etilganidek, tug'ma nuqsonlarning asosiy sabablari orasida genetik omillar, homiladorlik davridagi infeksiyalar, noto'g'ri turmush tarzi, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar va ekologik muhitning ifloslanishi yetakchi o'rin tutadi.

Shu boisdan, tug'ma nuqsonlarning oldini olishda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, onalarni erta bosqichda tibbiy ko'rikdan o'tkazish, prenatal diagnostika va skriningsni rivojlantirish, aholining genetik maslahat olish madaniyatini oshirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, spirtli ichimliklardan, chekish va zararli odatlardan voz kechish — kelajak avlod sog'lig'ini himoya qilish yo'lida eng oddiy, ammo eng samarali qadamlardan biridir.

Tug'ma nuqsonlar bilan kurashishda faqat shifokorlar emas, balki ota-onalar, jamiyat va davlat hamkorlikda harakat qilishi zarur. Zero, sog'lom bola — sog'lom oila, sog'lom oila esa sog'lom jamiyat demakdir.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirsaidov M.M. (2019). Tug'ma kasalliklar va ularni erta aniqlash. Toshkent: "Ilm va fan" nashriyoti.
2. World Health Organization (2023). Congenital anomalies – Key facts. Manba: <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/congenital-anomalies>
3. Juraev A.Sh. (2020). Pediatriya asoslari. Toshkent tibbiyot akademiyasi.
4. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi (2022). Aholi salomatligi va sog'liqni saqlash tizimi holati bo'yicha milliy hisobot.
5. American Academy of Pediatrics (2021). Birth Defects: Causes and Prevention. Manba: <https://www.aap.org>
6. G'aniyev Yu.X. va boshqalar (2021). Neonatologiya. Toshkent: TTA nashriyoti.
7. U.S. Centers for Disease Control and Prevention (CDC) (2022). Facts about Birth Defects. Manba: <https://www.cdc.gov/ncbddd/birthdefects/facts.html>

8. Ghosh T.K. (2018). Pediatric Congenital Anomalies: An Overview. Indian Journal of Pediatrics, 85(3): 201–208.
9. Uzbekistan Demographic and Health Survey (UDHS), 2021. Tug‘ma nuqsonlar va onalar salomatligi ko‘rsatkichlari – Toshkent, Sog‘liqni saqlash vazirligi.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PQ–4093-son, 2018 yil – Aholi salomatligini yaxshilash va skrining markazlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida..